

LUG'AT BOYLLIGINI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING XOTIRA FAOLIYATI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Valiyeva Nargiza Kuchar qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Filalogiya tillarni o'qitish : ingliz tili 1-kurs talabasi

nargizavaliyeva48@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xotira tushunchasi va uning ingliz tilini o'rganish jarayonidagi ahamiyati yoritib berilgan. Lug'at boylligini oshirishda uchraydigan asosiy muammolar, xususan yangi so'zlarni eslab qolish va ularni to'g'ri vaziyatda qo'llashdagi qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Shuningdek, so'zlarni so'z turkumlari asosida o'rganish, to'g'ri va noto'g'ri misollarni taqqoslash, amaliy mashqlar bajarish, rangli kartochkalar, qo'shiq va o'yinlardan foydalanish kabi samarali metodlar tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: samarali metodlar, raqamli dunyo, visual xotira, amaliy mashqlar, lug'at boylligi

Xotira – narsa, hodisalarni yoki o'tmish tajribalarini esda qoldirish va zarur bo'lganlarini tiklashdan iborat bo'lgan psixik jarayon. Xotira barcha psixologik jarayonlarning eng muhim harakteriskasi bo'lishi bilan birga, inson shaxsining birligi va yaxlitligini ta'minlaydi. Shaxsning o'z tajribasini eslab qolishi, esda saqlashi va keyinchalik yana esga tushurishi bu xotiradir. Yon-atrofimizga sodir bo'layotgan barcha hodisalar, kerakli ma'lumotlar (telefon raqam, tug'ilgan sana, kishilarning ismlari, joy nomlari, ilmiy terminlar va h.k.)ni eslab qolish nafaqat katta yoshlilar balki yosh avlod orasida ham uchrayotgan muammolardan biri ekanligi sir emas. Rivojlanib borayotgan raqamli dunyoda zamon bilan hamnafas bo'lish uchun yetarli kompyuter savodxonligiga ega bo'lish va dastur tilini tushunish zarur. Aynan shunday mavqega ega bo'lgan ingliz tilini ham ikkinchi til sifatida o'rganish, kerakli strukturalarni eslab qolish bevosita xotira bilan bog'liq jarayondir. Ko'plab til o'rganuvchilarni yangi so'zlarni o'rganish, zarur o'rinlarda qo'llash kabi qator muammolar qiynab kelmoqda.

Ingliz tilini o'rganishda muvaffaqiyatga erishish avvalo, lug'at boylligini shakllanishiga bog'liq. Chunki yetarli so'z zaxirasiga ega bo'lmagan o'quvchi o'z fikrini to'liq ifoda eta olmaydi va matn mazmunini chuqur anglashda qiyinchilikka duch keladi. Shu sababli tilini o'rganish jarayonida yangi so'zlarni nutqda qo'llay olishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ya'ni o'rganilgan so'z ma'nosi bilinadi, lekin u qaysi vaziyatda, qaysi so'zlar bilan va qaysi grammatik shaklda ishlatilishi haqida yetarli ma'lumot bazasi bo'lmaydi. Masalan, effect va affect so'zlarining ikkalasi ham "ta'sir" deb tarjima qilinadi. Shu sababli ular bu so'zlarni bir-birining o'rniga noto'g'ri ishlatishadi. Bu so'zlarning qo'llanilishi quyidagicha: affect – asosan fe'l bo'lib, "ta'sir ko'rsatmoq" degan ma'noni bildiradi, { Stress can affect your health }; effect - ko'pincha ot bo'lib, "natija", "oqibat" ma'nosida ishlatiladi, { Stress has a negative effect on your health }.

Bu kabi muammolarga yechim sifatida so'zlarni so'z turkumlari bilan o'rganish, to'g'ri va noto'g'ri misollarni taqqoslash va amaliy mashqlarni bajarish kabilarni keltirish mumkin. Shundan , to'g'ri va noto'g'ri misollar bilan taqqoslash foydali usul hisoblanadi. O'quvchi noto'g'ri tuzilgan gapni ko'rib , nima sababdan xato ekanini tushunsa , bu xatoni qayta takrorlamaslik ehtimoli yuqori bo'ladi. Yana bir samarali usul amaliy mashqlarni bajarish : yangi o'rganilgan so'zlar bilan gap tuzish , bo'shliqlarni to'ldirish , sinonim va antonimlar bilan ishlash, qisqa matn yoki dialog yozish orqali so'zlar passive lug'atdan active lugatga o'tadi. Atniqsa, o'quvchining o'z hayoti yoki kundalik tajribasi bilan bog'liq misollarni keltirishi so'zlarni eslab qolishni yanada osonlashtiradi.

Qo'shiq va she'rlar orqali tushunish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylash . Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga , o'rganuvchining og'zaki nutqi ham rivojlanadi . Bunga misol qilib ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari , shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanini ko'rsatadi. Qolaversa lug'at boyligini oshirishda ranglar ham juda katta rol o'ynaydi , chunku ular miyyani visual tarzda rag'batlantiradi . Masalan har bir so'zga alohida rang berish orqali uni eslab qolish osonlashadi . Rangli kaetochkalar yordamida so'zlarni turkumlash mumkin – fe'llar yashil, sifatlar sariq , otlar ko'k rangda bo'lishi fikrlarni tartibga soladi va ularni tezroq eslab qolishga yordam beradi . Shuningdek , turli viktorinalar , so'z topish o'yinlari yoki rolli mashg'ulotlar o'rganuvchini faol ishtirok etishga undaydi . bu esa o'rganishni majburiyat emas, balki qiziqarli jarayonga aylantiradi. Natijada o'rganuvchi yangi so'z va iboralarni sezmasdan o'zlashtirib boradi , nutqida ishonchliroq va erkinroq bo'la boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini muvaffaqiyatli o'rganish jarayonida xotiraning o'rni juda muhim hisoblanadi. Lug'at boyligi yetarli bo'lmagan o'rganuvchi na og'zaki, na yozma nutqda o'z fikrini to'liq ifoda eta oladi. Shu sababli so'zlarni faqat yodlab olish emas ,balki ularni kontekstda , to'g'ri grammatik shaklda va mos vaziyatlarda qo'llashga alohida e'tibor qaratish lozim. O'rganuvchi o'z holatidan kelib chiqib kerakli usullardan foydalana olsa til o'rganishdagi natijaga tezroq erishish mumkin . Albatta samarali usullardan foydalanish va ularni tatbiq etish , za'ruriy vaqt o'lchovini belgilay olish muhim. Bundan tashqari, so'z boyligini mustahkamlashda muntazam takrorlash , tinglab tushunish va o'qish mashqlarini bajarish , yangi o'rganilgan so'zlarni nutqda qo'llash katta ahamiyatga ega. Til o'rganishda sabr-toqat va izchillik asosiy omillardan biri bo'lib , doimiy mashg'ulotlar orqali o'rganuvchi o'z bilimni yanada rivojlantirishi va mustahkamlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dilorom Aymatova “ Xotira va o'smir yoshdagi o'quvchilarda xotirani mustahkamlash metodlari”, 2022
2. Kenjayeva Nigora “Ingliz tilini o'qitish effktive metodlari” , <https://doi.org/10.5281/zenodo.13347043>